



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PIRLS TOPSHIRIQLARI USTIDA ISHLASH

Qurbonboyeva Zuhra Davlatboy qizi

Guliston davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezis boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS topshiriqlari asosida badiiy asarlarni tahlil qilishga o'rgatishning ahamiyati xususida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, funksional savodxonlik, milliy rejaning maqsadi, PIRLS test topshiriqlari, o'zbek xalq maqollari, boshlang'ich sinf, jahon amaliyoti, hikoya, test topshiriqlari, kompetensiya, o'qish, badiiy asar, ta'lim sifatini baholash.

РАБОТА НАД ЗАДАНИЯМИ PIRLS В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Курбонбоева Зухра Давлатбоевна

*Студентка 3 курса направления «Начальное образование» Гулистанский
государственный педагогический институт*

Аннотация: В данной диссертации обсуждается важность обучения учащихся начальных классов анализу произведений искусства на основе задач PIRLS.

Ключевые слова: система образования, функциональная грамотность, цель национального плана, тестовые задания PIRLS, узбекские народные пословицы, начальный класс, мировая практика, рассказ, тестовые задания, компетентность, чтение, художественная работа, оценка качества образования.

WORKING ON PIRLS TASKS IN PRIMARY EDUCATION

Qurbonboyeva Zuhra Davlatboy's daughter

3rd-year student, Primary Education Department Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract: This thesis discusses the importance of teaching primary grade students to analyze works of art based on PIRLS tasks.

Key words: educational system, functional literacy, the purpose of the national plan, PIRLS test tasks, Uzbek folk proverbs, primary class, world practice, story, test tasks, competence, reading, artistic work, ta Assessment of the quality of education.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030- yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Yoshlarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish, ularni ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Yoshlarni jahon andozalariga mos holda tarbiyalash pedagoglar oldidagi muhim vazifalaridan biridir.

Ta'lim tizimini isloh qilish, dars jarayonlariga yangi metodlar va texnologiyalarni targ'ib etilishi natijasida dars sifatini oshirishga erishish mumkin. Bugungi kundagi muammoli masalalardan biri o'quvchi yoshlarni XXI asr talablariga javob beradigan aqliy yetuk, dunyoqarashi keng kabi sifatlarni ularda aks ettirishdan iborat. Yoshlarni vatanga muhabbat ruhida, tarixga sadoqat kabi tuyg'ularni singdirish, ajdodlarimizdan bizlargacha meros bo'lib kelayotgan ilmiy-madaniy meroslarni asrab-avaylash kabilar muhim hisoblanadi. oshirish, ta'lim-tarbiya berishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim jarayon hisoblanadi.

Konsepsiya doirasida, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PIRLS, PISA, TIMSS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Shuningdek, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizdagi o'zgarishlar, barqaror rivojlanishning yangi strategik yo'nalishlari va jamiyatning shaffofligi, uni tezkor axborotlashtirish, intensivlashtirish ta'limga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirdi. Ta'limning yangi modelini joriy etish ta'limni shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida yo'naltirilgan. Jahon amaliyotiga asoslanib PISA xalqaro tadqiqot dasturi yaratildi.

O'rta maktabning dastlabki bosqichlarida o'quvchining ta'lim sifati va ta'limning ijtimoiy ma'nosini tushunishi, jahon ta'lim makoniga to'liq integratsiyalashuvi xalqaro ta'lim tizimini talab qiladi. Il yillik ta'limda jahon tajribasini hisobga olgan holda, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va natijani to'g'ridan-to'g'ri o'rganish uchun mavzu munosabatlarini tashkil eta oladigan o'qituvchilarni tayyorlashga ustuvor ahamiyat beriladi.

O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi ma'noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha «construct» – yaratmoq deyiladi). O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf bitiruvchi o'quvchilarini PIRLS - baholash tizimi topshiriqlari asosida badiiy asarni tahlil qilishga o'rgatishga harakat qilamiz. Unda 4-sinf o'quvchilariga sinfdan tashqari o'qish darslarini inobatga olib, "Hikmatli boylik" hikoyasini tahlilga tortamiz. Hikoyada ikki kishi sayohat qilib yurib, bir g'orga duch kelishgani, g'orning ichida kumush eshikli xonada bir sandiq kumush tanga, tilla eshikli xonadan ham bir sandiq tilla tanga topishibdi. Har ikkala sayohatchi cho'ntaklarini va qo'ynilarini tilla tangaga to'ldirib olishibdi. Ketmoqchi bo'lib turishganida yog'och eshikli xonani ham ko'rib qolibdilar. Bu xonada yog'och sandiq ichida to'la kitoblarni ko'rib, birinchi sayohatchi: "Kitoblarni bunchalik ichkariga yashirishning nima hojati bor edi? Bu sandiq g'orning og'zida tursa ham bo'lar edi" deb orqasiga qaytibdi. Ikkinchi sayohatchi esa: "Bu sandiqning ichkariga yashirilishining bir hikmati bo'lsa kerak", deb tillalarni to'kib, kitoblardan ko'targanicha olibdi. Sherigi uning qilgan ishidan kulib, har ikkalasi o'z yo'lida davom etibdi. Oradan yillar otib, tilla olib kelgan odam boy-badavlat bo'lib ketibdi. Kitob olgan odamning esa bolalari kitoblarni o'qib, elga tanilgan olimlar bo'lib yetishibdi. Bu paytda esa ikki sayohatchi keksayib qolgan, tilla olib kelgan odamning bolalari otasining boyligini talashib, bir-birlari bilan urushib, har tomonga tarqab, otasini ham unutishibdi. Kitob olib kelgan odamning bolalari esa otasiga minnatdorchilik bildirib, uni qarigan chog'ida parvarish qilishibdi.

O'quvchilar matn bilan tanishtirilgach, asarning voqealar rivojini, mazmunini, g'oyasini, badiiyatini, shaklini va umumiy xulosasini tahlil asosida o'rganib, bolalarning savodxonlik darajasini aniqlaymiz. O'quvchilarning matnni to'liq, mazmun va g'oyasini kengroq ochtirishga, har bir so'z mohiyatini tushuntirishga, hikoyadan kelib chiqadigan g'oyani anglatishga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam berish maqsadida PIRLS test topshiriqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagi test topshiriqlaridan foydalanamiz.

1. "Hikmatli boylik" hikoyasi nima haqida yozilgan?

A. Boylik

B. Ilm izlash



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

C.Kitob

D.Sayohat

2. Ikki sayohatchi yo'lda qanday voqealarga duch kelishdi? Hikoya mazmuniga mos keladigan to'g'ri fikrlarni aniqlang.

1. Sayohatchilar yo'lda yovuz jodugarga duch kelishdi.

2. Ular yurib-yurib g'orga duch kelishdi.

3. G'orda kumush, tilla, yog'och eshikli xonalarni ko'ishdi va uy ichini kuzatishdi. 4. G'orda sayohatchilarni qirq qaroqchilar tutib olishdi.

5. G'ordan ko'pgina tilla va kitoblar olib chiqishdi.

6. G'ordan faqat kitob topishdi.

7. Ikki sayohatchilar o'z uylariga ketib, o'z holicha yashashdi.

A.1,2,4,5.

B.2,3,5,7.

C.2,3,6,7

D.1,2,3,5.

3. Kitobni nimaga qiyoslaymiz?

A.Oftob, nur, olam.

B.Hikmat, soya, dur

C.Ona, oltin, hikmat.

D.Tanga, ziyo, quyosh.

4. Birinchi sayohatchi boyliklarini nima qildi?

5. Ikkinchi sayohatchining yo'li to'g'rimi?

6. Kitob insonga nima beradi?

7. Hikoyadan kelib chiqadigan xulosaga mos keladigan o'zbek xalq maqollaridan topib yozing.

O'qish darslarida va sinfdan tashqari o'tiladigan har bir dars davomida o'quvchilarni matn bilan tanishtirish uning asosiy mazmun-mohiyatini ochish, berilgan badiiy asardan to'g'ri xulosa chiqarish va mazmunini chuqur tushunib yetgan holda o'z hayotida amaliyotda kerakli o'rinda foydalana olishga o'rgatishda yuqorida berilgan topshiriqlar yuqori samara beradi. Agar o'quvchda berilgan matnni ongli ravishda tushunish ko'nikmasi rivojlanganda uning o'qishga bo'lgan qiziqishi jadal suratda oshadi. Matn yuzasidan bajarilgan test topshiriqlari o'quvchini har tomonlama aqliy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirib, ma'nan tarbiyalanishiga yordam beradi va bunday topshiriqlar o'quvchi bilim faoliyatini kengaytirib, tarbiyalanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

3. "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) Toshkent.2019.

4. Boymurodova G., Sattorova X., Muslimova Sh., Kabilova Z., Saydaliyeva G., Karimova F. O'qish: 4-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma -T.: "Sharq"

5. "O'qish kitobi " 4-sinf: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh. Shariev, Z.Dolimov. Toshkent.2023-yil.

6. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

7. Norboyeva D. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi direktori o'rinbosari. 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun daftar.